

Salixodjayeva Havasxon Zakirjanovna
Namangan davlat universiteti dotsenti
Email:[*solixodjayevaxavasxon@gmail.com*](mailto:solixodjayevaxavasxon@gmail.com)

Xurinisa Xudoyberdiyeva,
Namangan davlat universiteti doktoranti
Email:[*xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com*](mailto:xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com)

XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATINING FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida o'z so'zi va ovozigaga bo'lgan shoir Xosiyat Rustamova she'riyatida qo'llangan fonostilistik birliklarning lingvostilistik tahlili ochib berilgan.

Kalit so'zlar: fonetika, stilistika, fonologiya, fonostilistika, alliteratsiya, assonans, geminatsiya.

Салихаджаева Хавасхан Закирджановна.
Доцент Наманганского государственного
университета

Электронная почта: [*solikhodjaevaxavasxon@gmail.com*](mailto:solikhodjaevaxavasxon@gmail.com)

Хуриниса Худойбердыева,
Докторант Наманганского государственного университета
Электронная почта: [*xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com*](mailto:xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com)

ФОНИСТАСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОЭЗИИ ХОСЯТ РУСТАМОВОЙ

Аннотация: В статье раскрывается лингво-стилистический анализ фоностилистических единиц, используемых в поэзии поэтессы Хосият Рустамовой, обладающей собственным словом и голосом в современной узбекской поэзии.

Ключевые слова: фонетика, стилестика, фонология, фоностилистика, аллитерация, ассонанс, геминация.

Salikhadjayeva Havaskhan Zakirjanovna
Associate Professor of Namangan State
University

Email: solikhodjayevaxavasxon@gmail.com

Khurinisa Khudoyberdiyeva

Doctoral student of Namangan State University

Email: khudoyberdiyevakhurininsa@gmail.com

PHONISTIC ANALYSIS OF KHOSYAT RUSTAMOVA'S POETRY

Abstract: *The article reveals the linguistic stylistic analysis of the phonostylistic units used in the poetry of the poet Khosiyat Rustamova, who has her own words and voice in modern Uzbek poetry.*

Key words: *phonetics, stylistics, phonology, phonostylistics, alliteration, assonance, gemination.*

KIRISH

Fonostilistika sohasi fonetika, fonologiya va stilistika fanlarining uyg'unligida shakllangan. Mazkur fanlar obyekti nuqtayi nazaridan fonetika va fonologiyaga yaqin tursa, bu til birliklariga xos bo'lgan ekspressivlik xususiyatlarini o'rganilishiga ko'ra stilistika bilan birlashadi. Shu ma'noda fonostilistika va fonetik stilistika atamalari tilshunoslikda teng qiymatga ega. [1,68]

Fonostilistika – nutq tovushlarining stilistik imkoniyatlarini o'rganadi. Bunda har bir tovushning nutqni ta'sirchan, e'tiborli qilishdagi o'rni, maqsadni aniq va to'g'ri ifodalash xususiyatiga ega bo'lishi tushuniladi. Fonostilistik vositalar ikki xil bo'ladi:

1. Muallifga xos vositalar.
2. Ijro etishga xos vositalar.

Muallifga xos bo'lgan fonostilistik vositalarga *ritmika, vazn, qofiya, alliteratsiya, assonans* va boshqa talaffuzga xos vositalar kiradi. Ijro etishga xos bo'lgan fonostilistik vositalar esa *intonatsiya, pauza, fraza va mantiqiy-logik urg'u, so'zning emotsional-ekspressiv xususiyatlari, to'liq va to'liqsiz talaffuzlar* hisoblanadi[2,38]. Biz ushbu maqolamizda ana shu vositalardan biri bo'lmish alliteratsiyaning lingvostilistik tahliliga to'xtalib o'tamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek tilshunosligida fonostilistikaga oid qarashlar ilk bor XX asrning 40-50-yillarida prof. Ayub G'ulomov tomonidan bildirilgan. X.Doniyorov va B.Yo'ldoshevlarning "Adabiy til va badiiy uslub" kitobidan o'rin olgan –"Fonetik stilistikani o'rganishning ayrim masalalari" nomli qismida o'zbek tili fonetik vositalarini stilistik tadqiq etish ko'lamini belgilashga harakat qilingan. [3, 69] Bundan tashqari S.Karimovning "O'zbek tilining fonetik stilistikasi" nomli monografiyasi ham e'lon qilingan. Fonetik stilistika to'g'risidagi nazariy qarashlar S.Sultonsaidova, O'.Sharipova, A.Shomaqsudovning "O'zbek tili stilistikasi", M.Imonovning "O'zbek tili uslubiyati masalalari" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmalarida ham o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada jahon va o'zbek tilshunos olimlarining fonostilistik izlanishlarini o'rganilib, natijalar qiyoslandi, o'rganilgan nazariy ma'lumotlar asosida shoira lirikasini fonostilistik jihatdan tahlil qilindi va tasniflandi.

Mavzuni yoritishda tavsiflash, qiyoslash, tasniflash va struktur tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Lirika har bir kitobxon qalbida estetik xis-tuyg'u uyg'otishi uchun, avvalambor, ehtiros bilan yozilgan bo'lishi lozim. Ana shundagina she'rning ta'sirchanligi oshib boradi. She'rning emotsionalligi esa vazn, ritm, qofiya, poetik figuralar, badiiy san'atlar bilan birga fonetik vositalarning stilistik xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Taniqli she'rshunos olim Ummat To'ychiyev ta'kidlaganidek: –"She'rni fonetik jihatdan puxta ishlash, unga o'ziga xos joziba, ohangdorlik va emotsionallik bag'ishlaydigan, kishi sezgisiga ta'sir etuvchi ohang va musiqiylik kuchli bo'ladi, ammo bu ohang hamda musiqiylik nutq tovushlari kompleksidan, ma'lum so'zlar birikmasi va nutq aloqasidan kelib chiqadi." Shuni ham aytish kerakki, alohida nutq tovushlari yoki har xil fonetik usullar o'z holicha aniq bir mazmunni ifodalaydi va poetik nutqni ta'sirchan qiladi.

O'zbekiston xalq shoirasi Xosiyat Rustamova she'riyatida fonostilistikaning o'rni beqiyosdir. Shoir she'ning tovush tomoniga alohida e'tibor qaratib, she'r ohangi tinglovchida emotsional his-tuyg'u ifodalash uchun maxsus fonostilistik usullar qo'llaydi, umuman, she'rni mohirona bezaydi.

Shoir she'riyati uchun fonostilistikaning alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarning qavatlanishi) kabi usullari xarakterlidir.

Alliteratsiya atamasi grekcha so'z bo'lib, nutqda tovushlarning uyg'unlashishidir. Alliteratsiya she'riy nutqda misralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi natijasida vujudga keladi va she'riy asarning ohangdorligini ta'minlaydi. "Alliteratsiya ko'zga unchalik ham yaqqol tashlanmasligi mumkin, ammo ular yaqqol "eshitiladi": ular she'ning musiqiyligini oshiradi, xushohanglik orqali estetik ta'sirni kuchaytiradi"[4,27].

Xosiyat Rustamova lirikasida alliteratsiyaning quyidagi ko'rinishlarini uchratishimiz mumkin:

1.She'ning ma'lum bir misrasidagi tovushlar takrori:

Qo'ylar qirdan qaytdi qo'zilab,

Nafas oldi qo'ralar yengil.

[“Har kungidan erta otdi tong” Devor 60-b]

Tishlarim tishimga tegmayapti rost,

Betoqat so'rayman kim o'ldi yana,

Qayerdan kelmoqda yig'lagan ovoz?

[“Hanifa ayamga” Ishg'ol. 75]

Shoshma-shoshar shamollar esa,

Olmalarni o'ynaydi otib,

Mayli, gullar gulini to'ksin,

Mevasini to'ksin, sen quvon.

[“Bog'lar o'tmishini ko'p eslar” Devor 100-b]

Mening bitta po'stinim uchun,

Yo‘**q** qilganlar **q**ancha **q**uyonni,
Menga hayot **q**ancha **q**ilar sarf,
Bo‘lardiku tezro**q** **q**arisam.

[“Do‘stim bo‘lasanmi..” Devor 33-b]

Qayerdan **q**aytdi **q**ushlar,
Bir joyda turishar tik,
Deraza sinib tushar,
Ochilib ketar eshik.

[“Vaqt” Rido 58-b]

2. She’rning ma’lum bir bandidagi tovushlar ohangdorligi:

Oyog’**im**da turib**man**mi tirik**man**,
Demak, **mum**kin sen haqingda o‘ylash**im**.

[“Ikkilik” Devor 25-bet]

Kelib **q**oldim-**q**anday **q**ilib?!

Qaytay **des**am-yo‘llar yiro**q**.
Qo‘rquv, vahm kelar kirib-
Hech **q**ayerda yonmaz chiro**q**.

[“Uzun yo‘lak” Devor 5-b]

Darvozada turar yangi kun,
Duk-duk urar ko‘ksida yurak,
Kimni **d**afn etishar bugun,
Qaysi uyda tug’ilar go‘**d**ak.

[“Darvozada turar yangi kun”]

Bu dunyoda **bor**liging **b**ilmay,
O‘tdim. **B**ir kun kelganingda **d**uch,
Hayot seni ovvora qilmay,
Bug‘doy **bo**‘lib **q**olsam **b**ir hovuch,
Havo **ber**sang **bo**‘ldi **b**ir yutum.

[“Bu dunyoda borliging bilmay” Ishg’ol 110-b]

Tashqarida **tun** turar behol,

Tun turadi hamon o'ksinib,

[“Tashqarida tun turar behol” Rido 48-b]

3.She’rda ma’lum bir banddagi misralarning bir xil tovush bilan boshlanishi:

Biror-bir kimsaga,

Bo‘lmadim tirgak,

Ba’zida tutilib qolar nafasim,

Ba’zan og’irlshib qoladi yurak.

[“Nihol bo‘lsam –qanday joy topar edim.”]

Ne qolar ortda ,

Nima esdan chiqdi,

Neni oldim yod?

Necha bor o‘lsam ham...

[“O, butun borliqni o‘zimga chorlab”]

Balki yanoqlarim ichga botgandir,

Bir oz shamolladim – yurtidan tashqari,

Bilmam, tuz-nasiba balki tortgandir,

Balki, kelgandirman vidolashgani.

[“Vatan” Ishg’ol 121-b]

Bir kuni bu ahvol,

Bir kun boshqacha,

Bu shoir dunyoga o‘rganib kettim,

Begonaligimni aytmasa.

[“Shamoldayin uchdim” Devor 16-b]

Savatda siz yacshi ko‘radigan non,

Sanchqi, qoshiq, chashka bari yaraqlab,

Sizni kutib olar dasturxon,

Faqat ko‘tarsangiz bo‘ ldi sochiqni.

[“Eshik qulflangan...” Devor 81-b]

Qushlar bizni bog‘lab olgan ilintirib,

*Qanday tushib qolgan edik qo‘llariga,
Qachonlardir bizni ozod qilishar deb,
Ko‘z tikkanmiz erta-yu kech yo‘llariga.*

[“Qushlar bizni... ”Devor 114-b 2]

*Bu qanday talato‘m,
Bag‘riga chorlar,
Bu qanday o‘limki - o‘tar mardona,
Bir-biriga to‘ymay,
Basavlat chollar.*

[“Asta qorong‘ulik bormoqda cho‘kib” Rido 29-b]

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, Xosiyat Rustamova ijodida vertikal va gorizontal alliteratsiyaning go‘zal na‘munalarini mavjud. Tilshunos M.Yo‘ldashev bu haqida quyidagicha fikr bildirgan:“Vertikal alliteratsiya, asosan, she‘riy matnga xos bo‘lib, misralar boshidagi so‘zlarda, ya‘ni misralararo, gorizontal alliteratsiya esa misra yoki jumla ichida bo‘lishi mumkin”. [5,46]

Xosiyat Rustamova o‘z she‘riyatida alliteratsiyadan unumli foydalanib, turli shakllarni yuzaga keltirgan va ularning har biriga uslubiy vazifa yuklay olgan. Shoir she‘rlarida, asosan, -q, -b, -h, -t, -d, -sh, -ch, -k kabi undosh tovushlar takror qo‘llangan. Ayniqsa, -b va -q tovushlari takrori ko‘p uchraydi. Shoir o‘z lirikasida hayotiy jarayonlarni majoziy ma‘noda yoritib berishga harakat qilgan va buni uddalagan.

XULOSA

Umuman olganda, fonetik takrorlar badiiy asarning shakliy o‘ziga xosligi bo‘lib, asarning baddiyatini oshirish, ayniqsa, she‘riy tilda misralarning ohangdoshlik, musiqiylik, ta‘sirchanlik, soddalik va ravonligini ta‘minlashga, fikrning mantiqiy hamda uslubiy bahosini oshirishga, biror so‘z yoki tovushga, ular ifodalayotgan mazmunga urg‘u berishga xizmat qiladi. Xosiyat Rustamova lirikasida fonostilistik vositalarning turli ko‘rinishlari uchraydi. Tovushlarning takror qo‘llanilishi talaffuzda uyg‘unlikni yuzaga keltiradi, bu esa tasvirlanayotgan

narsa-hodisaga o'quvchining diqqatini jalb qilib, misralarning badiiy estetik ta'sir kuchini oshiradi, ma'lum tushunchalarni takidlab, ajratib ko'rsatish vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Do'stmatov H. Uslubshunoslik asoslari. – Farg'ona, 2022. – 68 b.
2. Sultonsaidova S. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent, 2009. – 38 b.
3. Do'stmatov H. Uslubshunoslik asoslari. – Farg'ona, 2022. – 69 b.
4. Quronov D, Mamajonov J, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent, Akademnashr, 2010. – 27 b.
5. Юлдашев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Т., 2009. – 48 б.
6. Suyun Karimov. O'zbek tilining fonetik stilistikasi. – Samarqand, 2016.
7. Xosiyat Rustamova. Devor. G'afur G'ulom nomidagi nashryot. –Toshkent, 2006.
8. Xosiyat Rustamova. Rido. "Yangi asr avlodi". –Toshkent, 2004.
9. Uluqov N, Salixodjayeva H. Habib Sa'dulla she'riyati lingvopoetikasi. Namangan, 2017.